

**NAIM KARIMOV TALQINIDA OYBEK SIYMOSINING
ULUG‘LANISHI****Yuldasheva Quvonchoy**

Annotatsiya: *Ushbu maqolamizda Naim Karimov tadqiqotlarida Oybek ijodiyotining o‘ziga xos qirralari xususida gap ketadi. Qolaversa, Naim Karimov adibni nafaqat shoir va yozuvchi, balki yetuk shaxs sifatida tasvirlashiga alohida urg‘u beriladi.*

Tayanch so‘z va iboralar: *ijodkor, adabiyotshunos, uslub, g‘oya, romanchilik, xarakter, proza, she‘riyat, adabiy tanqid, jadid.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются особенности творчества Ойбека на основе исследований Наима Каримова. Особое внимание уделяется тому, что Наим Каримов изображает писателя не только как поэта и прозаика, но и как зрелую личность.*

Ключевые слова и выражения: *творец, литературовед, стиль, идея, романистика, характер, проза, поэзия, литературная критика, джадид.*

Annotation: *This article discusses the distinctive aspects of Oybek's creativity as explored in the research of Naim Karimov. Moreover, special emphasis is placed on the fact that Naim Karimov portrays the writer not only as a poet and author but also as a mature personality.*

Keywords and phrases: *creator, literary critic, style, idea, novel writing, character, prose, poetry, literary criticism, Jadid.*

Kirish. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasida ancha yillar davomida o‘z faoliyatini yuritib kelgan va o‘zbek adabiyotshunosligi hamda adabiy tanqid rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan olim Naim Karimov umumiy hajmda o‘ndan ortiq kitoblar va yuzdan ziyod maqolalar muallifidir. Olim nafaqat jadid adabiyotshunosligi namoyandalari ijodini, balki XX asr o‘zbek adabiyotining yirik shoir va yozuvchilari hayoti, qolaversa, ijodiy faoliyatini o‘rganib, o‘z tadqiqotlarida bular xususida ma‘lumotlar berib o‘tgan. XX asr so‘ngi choragiga kelib Oybek haqidagi tadqiqotlar anchaga yetdi. Naim Karimov bu boradagi izlanishlarda yetakchi o‘rinda turadi. Olimning “Ilhom chashmasining ajib mavjlari” risolasi aynan Oybekka bag‘ishlangan. Ushbu risolada Naim Karimov adibning ish uslubi, asar yozishga qanday tayyorgarlik ko‘rishi, qahramonlarni qay tariqa tanlab olishi xususida gap ketadi. Umuman olganda, Naim Karimovning Oybekka bag‘ishlangan ishlari juda salmoqli bo‘lib, hatto, adibning “Mukammal asarlar”ini nashrga tayyorlashda qilgan xizmatlari evaziga Beruniy nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Adabiyotshunos

ko`plab tadqiqotlar olib borgan bo`lsa ham Oybek shaxsiyati olim uchun o`zgacha bir siymo bo`lib qoldi. Xususan, chorak asr ichida Oybek hayoti va ijodiyotiga bag`ishlab yozilgan yuzga yaqin maqola, besh kitob va yigirma jildlik nashrga boshchilik qilish bunga dalil bo`la oladi. Va bu izlanishlar natijasi sifatida Naim Karimov “Oybek gulshanidan shabadalar”, “Oybek va Zarifa”, “Oybek” kabi bir qancha kitoblarni nashr qildirdi. Bundan tashqari, olim Zarifa Saidnosirovaning “Oybegim mening” to`plamini nashrdan chiqarilishiga ancha yordam berdi. Oybek haqida olib borilgan tadqiqotlar o`zining salmog`i, ahamiyati va yangiliklarga boyligi jihatidan zamon talablariga mos kelmoqda edi. Adabiyotshunos Naim Karimov ham o`z diqqatini Oybek ijodining shu paytkacha ochilmagan tomonlariga qaratdi va ilk bora adib nasriga mustaqillik g`oyalari nuqtayi nazaridan yondashdi. Oybek she`riyatini sof lirika sifatida turli mafkuralardan holi ravishda o`rganishni maqsad qildi. Tadqiqotchi adibning “Qutlug` qon” romanini Abdulla Qodiriyning “O`tkan kunlar” romani bilan qiyoslagan holatda tahlil etdi.

Ma`lumki, biror shoir yoki yozuvchi haqida gap ketganda, o`sha adibning kitobxonlarga yoqqan asarlari va bu asarlarning bosh qahramonlari ko`z oldimizda namoyon bo`ladi. Aynan, Oybek nomini tilga olishimiz bilan adibning “Qutlug` qon” va “Navoiy” romanlari va bu asarlar orqali bizga tanish bo`lib qolgan qahramonlar xayolimizda gavdalanadi. Biz ana shu qahramonlar orqali Oybek shaxsiyati va uning sermahsul ijodi xususida tasavvurlarga ega bo`lamiz. Bu holat tabiiydir. Ammo, bu bilan cheklanib qolmasdan, Oybekka vatandosh sifatida uning shaxsiy hayoti va qaysi zamonda, qanday tuzumda yashaganidan xabardor bo`lsak, u haqdagi tushunchalarimizni ayrim manbalar asosida boyitsakkina adib shaxsiyati borasidagi tasavvurlarimiz yanada mukammallashadi.

Adabiyotshunos olim Naim Karimov Oybek xarakterini ochib berishda, asosan, qiyosiy yo`ldan ketdi. U Oybek va G`afur G`ulom shaxsiyatlarini qiyosan tahlil qilib Muso xarakterini quyidagicha izohlaydi: “Oybek bilan bir davrda, hatto, yonma-yon mahallada G`afur G`ulom ham yashagan. Ammo, nega mumtoz o`zbek adabiyotini yaxshi bilgan G`afur G`ulom emas, balki Birinchi jahon urushi arafasidagi o`zbek xalqi hayoti xususida roman yozgan Oybek Alisher Navoiy haqida nafaqat yirik roman, balki ikkita doston, bir necha she`rlar va hatto “Navoiy gulshani” ilmiy maqolalar kitobini yaratgan? Nega bolaligidan sho`x va quvnoq bo`lgan Oybek emas, balki G`afur G`ulom “Shum bola” qissasini yozgan?... Buning sababi Navoiyning Oybek ruhiy olamiga, Shum bolaning esa G`afur G`ulom tabiatidagi “afandilik”ka yaqinligidir. Aytmoqchimizki, nafaqat muallif qahramonni, balki qahramon ham yozuvchini tanlaydi¹³².

¹³² Naim Karimov “Oybek gulshanidan shabadalar” Toshkent “Ma`naviyat” 2015. 3-bet

Darhaqiqat, yozuvchi va qahramon munosabati adabiyot olamida eng muhim masalalardan biridir. Muallim o‘z asariga qanday obrazni bosh qahramon sifatida tanlashi, uning niyatiga, qolaversa, asar mavzusiga ham bog‘liq bo‘ladi. Ammo, ba‘zan shunday asarlar ham uchrab qoladiki, unda qahramon va yozuvchining xarakteri o‘zaro o‘xshashlik kasb etmaydi. Bunday asarlarda qahramon ruhiy olami o‘zga bir dunyo bo‘lsa, muallif mutloq boshqa shaxsiyat egasi bo‘lib chiqadi. Haqiqiy ijodkor esa obraz yaratish davomida o‘z tajriba va shaxsiy qarashlarini o‘sha qahramon ruhiyatiga singdira olishi kerak. Adabiyotshunos Naim Karimov Oybekning aynan ana shu yo‘ldan borganligini e‘tirof etib: ”Adib asarlaridagi qahramonlar qaysi davrda, qanday mavqeda, qaysi tabaqaga mansub bo‘lib yashashidan qat‘iy nazar u Navoiy, yo Yo‘lchi, yoki Bektemir, yoxud O‘ktam bo‘ladimi, ular bag‘rida Oybek qalbidan oqib o‘tgan qon hamisha jo‘sh urib turadi”¹³³. Haqiqatdan ham bu qahramonlar xarakterida adib shaxsiyatidagi samimiylik va mardonalik, haqiqatgo‘ylik ufuq turadi. Muallif qanday bo‘lsa, undagi insoniy fazilatlar asarlarida, albatta, o‘z ifodasini topadi. Bosh qahramon qiyofasi yoki harakatlarida muallifdagi qandaydir belgi bo‘ladi. Shuning uchun adabiyotga ixlosmand har bitta kitobxon biror yozuvchi asarlarini uning hayotiy faktlari, insoniy qiyofasi orqali o‘rgansa maqsadga muvofiq hisoblanadi.

“Shoirni uch muhim fazilat ajratib turadi”,- deydi olim Naim Karimov. “Bular – bilim va dunyoqarashning kengligi, tuyg‘u va fikrning o‘zaro munosabatida fikrning ustuvorligi, shuningdek, liro-epik tasvirga moyillik...”

Haqiqatdan ham, xuddi shu xususiyatlar Oybekning nasr gulshaniga dadil kirib kelishiga asos bo‘lgan. Oybek faqat yozuvchi bo‘libgina qolmasdan, uning teran she‘riyati ham o‘zbek adabiyotida alohida o‘ringa ega. Adib she‘riyati tahliliga bag‘ishlangan bir qancha maqola va to‘plamlar mavjud.

Oybek- o‘tkir nigohli ijodkor hisoblanadi. Balki shuning uchundir, u ijod davomida rangsiz bo‘yoqlar va siyqasi chiqqan so‘zlardan foydalanmaydi. Misradagi har bitta kalom o‘zgacha ohangda namoyon bo‘ladi. Oybek insoniyatga hayotni sevishni, uning pokizaligi va tinchligi yo‘lida kurashishni o‘rgatadi.

Vatanni sev, tuprog‘ini o‘p,
Har qarichi muqaddas bizga.
Cho‘lidagi hatto quruq cho‘p
Jondan yaqin yuragimizga...

Olim Naim Karimov e‘tiroficha, Cho‘lpon va Qodiriylar boshlab bergan roman janrini Oybek yangicha talqinda davom ettirishga chog‘lanadi. Ayni paytda bu davrda qatag‘on

¹³³ Naim Karimov “Oybek gulshanidan shabadalar” Toshkent “Ma‘naviyat” 2015. 4-bet

siyosati avj olishiga qaramay, o‘zi yaxshi bir shoir bo‘lsa-da prozada o‘zini namoyon qila boshladi va tahlikali yillarda jasorat ko‘rsatib o‘zbek romanchiligiga munosib hissa qo‘sha oldi.

Hali Oybek haqida juda ko‘plab adabiyot va san‘at asarlari yaratiladi .Bu asarlarda uning nafaqat shoir, balki inson sifatidagi ulug‘ligi ham o‘z aksini topadi. Ahamiyatlisi, aynan shunday asarlar tufayli ham Oybekning porloq nomi, o‘lmas asarlari uzoq davrlar mobaynida xalqimiz xotirasida yashayveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Karimov. N. “Oybek va Zarifa”. –T.: O‘zbekiston,1990.
- 2.Karimov. N. “Oybek”. –T.: Yosh gvardiya, 1985.
- 3.Karimov. N. “Oybek gulshanidan shabadalar”. – T.: Ma’naviyat, 2015.